

**“Uzbekistan Airways” AJ  
Kuzatuv kengashi majlisining  
2022 yil “30” apreldagi  
2-sonli bayonnomasi bilan  
“TASDIQLANGAN”**

**“Uzbekistan Airways”  
Aksiyadorlik jamiyati  
Kuzatuv kengashi qoshidagi**

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH  
VA ETIKA QO‘MITASI  
TO‘G‘RISIDA NIZOM**

## **1-bo'lim. Umumiy qoidalar**

1.1. Ushbu "Uzbekistan Airways" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda Jamiyat deb yuritiladi) kuzatuv kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi to'g'risidagi nizom (keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Jamiyat Ustaviga va Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Ushbu Nizom Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasining (keyingi o'rinlarda Qo'mita deb yuritiladi) maqomi va vakolatlarini, qo'mitaning huquq va majburiyatlarini, qo'mita tarkibini, uni shakllantirish tartibini, faoliyatini hamda jamiyatning boshqa boshqaruv organlari bilan o'zaro hamkorligini belgilaydi.

1.3. Qo'mita Jamiyatning doimiy maslahat organi hisoblanib, kuzatuv kengashining nazorat funksiyalarini samarali bajarilishiga ko'maklashish maqsadida tashkil etiladi. Qo'mita maqsadi korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lgan holatlarni oldini olish bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, Jamiyatning ishchi-xodimlari, mijozlari va jamiyatni qonuniy huquqlarini korrupsiyaning salbiy oqibatlaridan kelib chiquvchi xavf-xatarlardan himoya qilish hisoblanadi.

1.4. Qo'mita o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmonlari va farmoyishlari, Jamiyatning normativ hujjatlari, ushbu Nizom, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan foydalanadi.

1.5. Qo'mita faoliyati davomida o'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasining davlat va jamoat organlari, shu jumladan, zaruriyat tug'ilgan hollarda huquq-tartibot idoralari, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qiladi.

1.6. Qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan barcha takliflar ko'rib chiqish uchun kuzatuv kengashiga taqdim etiladigan tavsiyalar hisoblanadi.

## **2-bo'lim. Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasini saylash tartibi va tarkibi**

2.1. Qo'mita 3 nafar a'zodan iborat bo'lib, ular kuzatuv kengashining barcha a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi.

2.2. Qo'mita a'zolarining vakolat muddatlari ularning kuzatuv kengashi a'zolari sifatidagi vakolatlari muddatlariga to'g'ri keladi.

2.3. Qo'mita tarkibiga faqat kuzatuv kengashi a'zolari saylanishi mumkin.

2.4. Qo'mita a'zolari korrupsiyaga qarshi kurash hamda etika borasida tegishli ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

2.5. Jamiyat boshqaruvi raisi va boshqaruv a'zolari Qo'mita a'zosi bo'la olmaydi.

2.6. Kuzatuv kengashi istalgan vaqtda Qo'mitaning istalgan a'zosining vakolatlarini biron-bir asosga ko'ra tugatishga, shuningdek, Qo'mitaning butun tarkibini qayta saylashga haqli.

### **3-bo'lim. Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mita ish tartibi**

- 3.1. Qo'mitaga Qo'mita a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan saylangan rais boshchilik qiladi.
- 3.2. Jamiyatning korporativ kotibi/maslahatchisi (yoki Qo'mita yig'ilishida saylangan Qo'mita a'zolaridan biri, shuningdek korporativ kotib/maslahatchi bo'lmagan hollarda uning vazifasini bajaruvchi sifatida Jamiyat aksiyadorlar bilan korporativ aloqalar bo'limi mutaxassisi) Qo'mita kotibi hisoblanadi.
- 3.3. Qo'mita ishi majlislar shaklida amalga oshiriladi.
- 3.4. Qo'mita majlislari zaruratga qarab, lekin har qanday holda kamida har chorakda bir marta o'tkaziladi. Kuzatuv kengashi majlisining kun tartibiga qo'mita vakolatiga kiruvchi masalalar kiritilgan taqdirda, qo'mita majlisi kuzatuv kengashining tegishli majlisi o'tkazilishidan kamida 14 kun oldin o'tkaziladi.
- 3.5. Qo'mita majlislari Qo'mita raisining, qo'mita har qanday a'zosining, korporativ kotibning/maslahatchining tashabbusi bilan yoki kuzatuv kengashining qarori bilan chaqiriladi.
- 3.6. Zarur hollarda, qo'shimcha yig'ilishlar chaqirilishi mumkin. Qo'mita kotibi jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari yuklatilgan tegishli xodimning iltimosiga binoan Qo'mita majlisini chaqirishi mumkin.
- 3.7. Majlislar quyidagi shakllarda o'tkaziladi: jismoniy ishtirok etish, sirdan ovoz berish, video va audio konferensiya.
- 3.8. Qo'mita majlisi, agar qo'mita a'zolari umumiy sonining kamida oltmish foizidan ortig'i qatnasha, majlis vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.
- 3.9. Qo'mita kotibi yig'ilishning kun tartibini ko'rsatgan holda Qo'mitaning barcha a'zolariga dastlabki xabarnomani yuboradi va majlis o'tkazilishidan kamida 14 kun oldin kun tartibining har bir bandi bo'yicha barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etadi. Xabar berish Qo'mita a'zolari uchun qulay bo'lgan har qanday shaklda: telefon, faks, oddiy yoki elektron pochta orqali amalga oshiriladi.
- 3.10. Qo'mita majlisi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, mazkur bayonnoma majlisda qatnashgan barcha Qo'mita a'zolari tomonidan imzolanadi.
- 3.11. Qo'mita masalalarni muhokama qilish yakunlari bo'yicha yozma shaklda qarorlar qabul qiladi, ular majlisda qatnashgan barcha Qo'mita a'zolari tomonidan imzolanadi. Bunday yozma qarorlar kuzatuv kengashining navbatdagi majlisiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida kuzatuv kengashi raisiga yoki jamiyat korporativ kotibiga/maslahatchisiga taqdim etiladi. Qo'mitaning har bir a'zosi o'zining alohida fikrini bildirishi mumkin, u Qo'mita qarori bilan birga taqdim etiladi.
- 3.12. Qo'mita majlisda qatnashayotgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi.

### **4-bo'lim. Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi maqsad va vazifalari, asosiy yo'nalishlari**

- 4.1. Qo'mita faoliyatining maqsadi Jamiyat faoliyatini O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvar kungi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 aprel kungi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi

navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-sonli Farmoni, shuningdek bu boradagi boshqa me'yoriy hujjatlar va halqaro huquq normalariga muvofiqligini ta'minlashdir.

4.2. Qo'mita O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirishda o'z vakolati doirasida qatnashadi hamda ushbu siyosatni, shu jumladan, tegishli davlat dasturlari, hamda halqaro standartlarni Jamiyatda sifatli amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi.

4.3. Qo'mitaning vazifalari quyidagilardan iborat:

4.3.1. Jamiyat tizimidagi korrupsiya xatarlarini doimiy ravishda tahlil qilish, korrupsiya namoyon bo'lishiga olib keladigan sabablar va sharoitlarni aniqlash va tahlil natijalariga ko'ra ularni yo'q qilish bo'yicha takliflar tayyorlash.

4.3.2. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash, ularga yo'l qo'ymaslik tizimini samaradorligini oshirish.

4.3.3. Korrupsiyaga qarshi yagona tarmoq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish.

4.3.4. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy, amaliy va me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish.

4.3.5. Korrupsiyaga qarshi qonunchilikka rioya etilishini muvofiqlashtirish va monitoring qilish.

4.4. Qo'mita faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

4.4.1. O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatini Jamiyatda ro'yobga chiqarishda muvofiqlashtirish choralarini ko'rish.

4.4.2. Korrupsion xavf-xatarlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari va sharoitlarini o'rganish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli takliflarni kiritish.

4.4.3. Jamiyatda korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklarni monitoring qilish.

4.4.4. Jamiyatning barcha sohaviy xizmat va bo'linmalarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hamkorligini, hamda bu boradagi faoliyatning shaffofligini ta'minlash.

4.4.5. O'zbekiston Respublikasi tegishli davlat organlaridan, jamoat tashkilotlaridan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi kelib tushadigan xabarlarni samarali ko'rib chiqilishini ta'minlash.

4.4.6. Jamiyatning davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat yagona siyosatini samarali yuritish.

4.4.7. Jamiyat ishchi-xizmatchilari orasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada takomillashtirish, bu boradagi tadbirlarni muvofiqlashtirib borish.

4.4.8. Korrupsiyaning Jamiyat ishchi-xizmatchilari safiga kirib kelishidan himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish.

## **5-bo'lim. Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi huquq va majburiyatlari**

5.1. Qo'mita quyidagilarga haqli:

5.1.1. Jamiyat boshqaruv a'zolari, boshqa mansabdor shaxslari va xodimlaridan (shu jumladan strategiya bo'yicha maslahatchilardan) hujjatlar, hisobotlar, tushuntirishlar va boshqa ma'lumotlarni so'rash;

5.1.2. Jamiyat boshqaruv a'zolarini va boshqa mansabdor shaxslarini va xodimlarini, shuningdek strategiya bo'yicha Jamiyat xodimlarini o'z yig'ilishlariga kuzatuvchi sifatida taklif etish;

5.1.3. tashqi ekspertlar va maslahatchilar xizmatlaridan foydalanish;

5.1.4. zarurat tug'ilganda, shu jumladan mustaqil ekspertlar ishtirokida maxsus tekshirishlar o'tkazish;

5.1.5. o'z vakolatlari doirasida va ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda kuzatuv kengashi tomonidan belgilanishi mumkin bo'lgan boshqa vazifalarni bajarish.

5.2. Qo'mita har yili ushbu Nizomning belgilangan talablarga muvofiqligini tahlil qiladi va baholaydi hamda ushbu Nizomga Qo'mita tomonidan zarur deb topilgan o'zgartirishlar kiritish bo'yicha kuzatuv kengashiga tavsiyalar beradi.

5.3. Qo'mita muntazam ravishda (har bir yig'ilishdan keyin, lekin chorakda kamida bir marta) kuzatuv kengashiga o'z faoliyati to'g'risida hisobot beradi.

5.4. Qo'mita a'zolari quyidagilarga majburlar:

5.4.1. Qo'mita ishida ishtirok etish va uning barcha majlislarida qatnashish;

5.4.2. o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida ularga ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarning maxfiyligini hurmat qilish, bunda Jamiyat faoliyatiga taalluqli ochiq bo'lmagan ma'lumotlar tushunchasi va uning tarkibi Jamiyat kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanadi;

5.4.3. Kuzatuv kengashini mustaqil a'zo sifatidagi maqomi o'zgarganligi yoki qo'mita tomonidan qabul qilinadigan qarorlar bilan bog'liq holda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganligi to'g'risida xabardor qilish;

5.4.4. Qo'mita a'zolari o'z ixtiyori bilan Jamiyat xodimlari va boshqa shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatiga ta'sir qiladigan ma'lumotlarni, shuningdek qo'mita majlisida ko'rib chiqiladigan boshqa konfidensial ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladilar. Qo'mitaga kelib tushgan ma'lumotlardan faqat ushbu Nizomda va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda foydalanish mumkin.

5.4.5. har yili Qo'mita va uning a'zolari faoliyatini tekshirish va baholash, shu jumladan Qo'mita tomonidan ushbu Nizomga rioya etilishini tekshirish.

## **6-bo'lim. Qo'mita a'zolarining javobgarligi**

6.1. Qo'mita a'zolari o'z huquqlaridan foydalanishda va o'z vazifalarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlaydilar va belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

## **7-bo'lim. Qo'mita a'zolarini rag'batlantirish**

7.1. Qo'mita a'zolarini rag'batlantirish "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom talablariga muvofiq belgilanadi.

## **8-bo'lim. Yakuniy qoidalar**

8.1. Ushbu Nizom moddalari Jamiyat kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

8.2. Ushbu Nizom qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar, Jamiyatning ustaviga, Jamiyatning ichki hujjatlariga o'zgartishlar va/yoki qo'shimchalar kiritilishi munosabati bilan o'zgartirilishi va/yoki to'ldirilishi mumkin.

8.3. Ushbu Nizomga o'zgartish va / yoki qo'shimchalarni tasdiqlash to'g'risidagi qaror Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

8.4. Ushbu Nizomga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar ular kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi.

8.5. Agar ushbu Nizomning ba'zi moddalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid kelsa, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu moddalar bilan tartibga solinadigan masalalar nuqtai nazaridan, ushbu moddalarga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va / yoki Jamiyat Ustaviga rioya qilinadi.